



Criteria for determining cyberspace factors hindering educational and educational efficiency

Ulugbek YAZDONOV¹, Farkhod DJUMANIYAZOV²

Samarkand Agroinnovation and Research University,
The Ministry of Internal Affairs, Samarqand Academic Lyceum

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 October 2023

Keywords:

effectiveness of education
and upbringing
cyber education,
process of education and
upbringing,
social importance of
education,
individual-human-personal
development.

ABSTRACT

In this article, the social trends of the cyber space factor, which is becoming established in modern society, its sphere of influence: local, regional, and global forms, the scientific research conducted in the advanced research centers of the world in this regard, and the practical results obtained from them are comparatively analyzed. The issue of “social threat” to the process of education and upbringing was considered.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss8/S-pp30-35>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ta'lim va tarbiya samaradorligiga to'siq bo'luvchi kibernakon omillarini aniqlashtirish mezonlari

Kalit so'zlar:

ta'lim va tarbiya
samaradorligi,
kiber ta'lim,
ta'lim va tarbiya jarayoni,
ta'limning ijtimoiy
ahamiyati,
individ-inson-shaxs
kamoloti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda qaror topib borayotgan kibernakon omilining ijtimoiy tendensiyalari, uning ta'sir doirasi: lokal, regional va global shakllari, bu borada jahonning ilg'or tadqiqot markazlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ulardan olinayotgan amaliy natijalar qiyosiy tahlil etilib, “kiber tahdid”ning ta'lim va tarbiya jarayoniga o'tkazayotgan “ijtimoiy tahdidi” masalasi ko'rib chiqilgan.

¹ Doctor of Philosophy, Professor, Head of the Department of Fundamental and Humanitarian Sciences, Samarkand Agroinnovation and Research University

² Teacher, The Ministry of Internal Affairs, Samarqand Academic Lyceum

самарадорлигини оширишга қаратилган таклифлар шакллантирилган.

Критерии для определения факторов киберпространства, влияющих на эффективность обучения и воспитания

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

эффективность образования и воспитания, киберобразование, образовательно-воспитательный процесс, социальная значимость образования, индивидуально-человеческо-личностное развитие

В данной статье исследуются социальные тенденции киберпространства, активно формирующиеся в современном обществе. Обозначены сферы его влияния на разных уровнях: локальном, региональном и глобальном. Освещены научные исследования по данной тематике, проводимые в ведущих научно-исследовательских центрах мира. Статья предоставляет сравнительный анализ практических результатов, выявленных в ходе этих исследований, и акцентирует внимание на проблеме «киберугроз». Отдельное внимание уделено анализу «социальных угроз» для процессов образования и воспитания.

Kirish. Jamiyat hayotida kuzatilayotgan ijtimoiy muammolarni aniqlashtirish, ularni harakatga keltiruvchi sub'yektiv elementlarni, ob'yektiv vositalarni topish, bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro korrelyatsion aloqadorlikka olib chiquvchi "ta'sir elementlari"ga aniqlik kiritish dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlash, tadrijiy taraqqiyot bosqichga olib chiqishda kibermakon omilining salbiy ta'sir doirasini "kuchsizlantiruvchi" mexanizmni ishlab chiqish zarurati kun tartibida qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim va tarbiya samaradorligiga to'siq bo'luvchi kibermakon omillari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlik koeffitsiyentining mavjud yoki mavjud emasligi analiz va sintez metodi ko'magida tahlil etilib, muammoni keltirib chiqaruvchi sababiyat turkumlashtiriladi, ya'ni hodisa mohiyati tarkibiy qismlariga ko'ra bo'laklarga ajratilib, olingan natijalar murakkablik darajasiga nisbatan yaxlitlashtiriladi. Tadqiqot xulosalari o'zaro ta'sir kuchidagi differensiyallashuv darajalariga qarab, mantiqiy asoslanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Natija. Yangilanayotgan O'zbekistonning ko'plab sohalarida jiddiy islohotlarni olib borish taqozo etilmoqda. Xususan, 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berilishi – ta'lim va tarbiya samaradorligi borasida qilinishi zarur bo'lgan ishlarning ko'lamidan dalolat beradi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda – bugun biz ulug' niyatlar bilan poydevorini qo'yayotgan yangi Uyg'onish davrida, xalqimiz hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o'zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladigan konsepsiyani ishlab chiqishimiz, ya'ni "2022-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi"ni yaratishimiz maqsadga muvofiqdir[1]. Shu maqsadda, davlatimiz tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirilishi reja qilingan davlat dasturi qabul qilindi (2023-yil 28-fevral, PF-27-son). Dasturda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

2023-yil 1-sentabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish;

–2023/2024-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotga kiritish;

– umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish;

– professional ta'lim tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ish beruvchilarning talablariga mos bo'lgan malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash;

– 2023-yil 1-sentabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash tizimi talablariga to'liq javob beradigan 1 tadan namunaviy professional ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish[7] masalalari belgilab olindi.

Umuman olganda O'zbekiston Respublikasi hukumati bosh islohotchiligida olib borilayotgan amaliy ishlar o'z natijasini bermoqda. Jumladan, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasi hozirda 62 foizni tashkil etmoqda[8]. Bu ko'rsatgich 2016-yilgacha 27 foizdan[9] oshmagan edi. yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 32 foizga oshirildi. Agar bu ko'rsatgichni 2017-yilga qadar bo'lgan vaqt oralig'idagi "maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrov" ko'rsatgichi bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 3,5 baravar[10]ga ortganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Ammo masalaning ikkinchi tomoniga ham e'tibor qaratish zarur. Ya'ni faqat "qamrov" darajasiga ko'ra ta'lim sifatini oshirib bo'lmaydi. Aksincha, ilmga layoqatli yoshlarni yetishtirish, malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talabiga javob beradigan avlodni shakllantirish orqali – jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkin. Albatta, mamlakatimizda bu borada ko'plab ishlar qilinmoqda. Buni e'tirof etgan holda, yoshlarni sifatli ta'lim olishiga, milliy o'zligimiz, mentalitetimizga mos va xos ravishda tarbiya topishida jiddiy to'siq bo'lib kelayotgan omillar keng qamrovda tus olmoqda. Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim"[2] bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yondashganda, ***zamonaviy kibermakon ta'sirida yoshlarni buyuk avlodlarga munosib bo'lib tarbiya topishiga quyidagi omillarning salbiy ta'siri sezilmoqda:***

1. Ommaviy axborot vositalarining globallashuvi. OAV auditoriyasining cheksizligi, bir vaqtning o'zida psixologik, pedagogik, sotsiologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir etish imkoniyatining kengligi, bu vositaga ko'plab "inson qalbiga yo'l eshiklarini" ochib bermoqda. Albatta, XXI asrda OAVdan foydalanmaslikning iloji yo'q. Ya'ni OAV insonlar (*bizlarning*) hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bu borada Maxatma Gandining quyidagi fikrini keltirib o'tish kifoya: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim ham berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman"[3]. Bundan xulosa shuki, OAV yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etmasligi uchun, avvalo "ommaviy axborot vositalari seleksiyasini" to'g'ri yo'lga quyish kerak.

Birgina misol, O'zbekiston telekanallarida qo'yilayotgan bugungi seriallar (*Masalan, Turk seriallari*), o'zida mujassam etilgan "Sharq va G'arb mentaliteti qorishmasi"ga oid g'oyalari bilan, yoshlar ongi shuurida, dunyoqarashida "ommaviy madaniyat"ga moyillik "instink"larini oshirmoqda.

2. Dunyoviy davlat sifatida o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olishga urinayotgan jamiyatimizda fikrlar xilma-xilligi, e'tiqod erkinligi, so'z-fikr bildirish demokratiyasining mustahkamlanib borayotganligi ortidan – aksariyat yoshlar qalbida (*ongida*) "qadriyatsizlik", "ma'naviyatsizlik" elementlari ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Milliy ma'naviy qadriyatlarga sodiq bo'lib tarbiya topish o'rniga kosmopolitistik g'oyalar qaror topmoqda. Bunga albatta o'zimiz (*chuqur tafakkur etmay qabul qilgan qarorlarimiz*) sabab bo'lmoqda. Masalan, aksariyat ota-onalar hayot tarzida – bolamni moddiy ta'minotini ta'minlash mening asosiy burchim, qabilidagi tushuncha ortidan kirib kelayotgan "bola tarbiyasiga e'tiborsizlik", yoshlar (*balog'atga yetmagan farzandlar*) o'rtasidagi ko'plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Aniqroq aytganda, farzandini yoshi ulg'ayib, "farzand tashvishlari" boshlanguniga qadar, uning moddiy jihatdan ta'minotini qondirishga qaratilgan harakatlari (*masalan, chet davlatlariga borib ishlash maqsadida – mehnat migratsiyasini amalga oshirish*), guldek beg'ubor, yosh niholdek tarbiyaga muhtoj bo'lgan farzandini – ma'naviy qashshoq, ilmiy salohiyatsiz, mehri kamtik, xudbin bo'lib voyaga yetishiga olib kelmoqda.

3. Yoshlarni hayotga "yengil-yelpi" qarashi, shoshqaloqlik bilan qarorlar chiqarishi, "ommaviy madaniyat"ga bo'lgan moyilligini ortishi, ilm olishni sharafla mashg'ulot emas, aksincha majburiyat sifatida baholashi, ularda ilmsizlikni qaror topishiga olib kelmoqda. Bu jarayonga kibermakon imkoniyatlari yanada kuchli ta'sir etmoqda. Masalan, aksariyat yoshlar o'zini onlayn "qahramonlar" obrazi kabi tutishga urinishi, kitob orqali ilm izlashdan ko'ra onlayn (*Google, Instagram, Twitter, Facebook va boshqalar*) ilm izlashni afzal bilishi, tasdiqlanmagan, rasmiy manbaga ega bo'lmagan ma'lumotlar orqali "ilmiy qurollanishi", ya'ni hayotiy tajribaga, diniy e'tiqodga oid ilmlarni onlayn xizmatlardan izlashi natijasida – yoshlar ongida ishonchsiz ma'lumotlarni to'planib borayotganligi, natijada ularda ilmsizlik ortib, fundamental bilim olishga urinishdan ko'ra "noaniq manbali" yoki "tajribada sinalmagan o'git, pand-nasihat"ga ishonish alomatlari avj olmoqda.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanish tizimini tartibga solish bo'yicha davlat dasturlari zamon talablariga mos holda ishlab chiqilmayotgani, yoshlarda "axborot seleksiyasi"ni amalga oshirish ko'nikmasi o'zligicha qolishiga turtki bo'lmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda, inson hayotining deyarli barcha jihatlariga (*xususiy*) daxl qilmoqda[6]. U shaxsga o'z bilimlarini oshirish, professionalizmini yuksaltirish, ehtiyoj va mayllaridan "tartibsiz" qondirishga sabab bo'lmoqda. Bu borada psixolog Turman Sornuris shunday xulosa beradi: zamonaviy texnologiya inqilobi oldin ma'lum bo'lmagan kompyuter va internetga qaramlik – ruhiy kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu kasalliklarning xatarli jihati shundaki, ular omma xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, giyohvandlik kabi og'ir asoratlarni beradi. Keyingi yillarda ruhiy-asab va boshqa kasalliklar ko'paydi. Bunga kompyuter, internet, video va uyali telefonning ommalashgani sabab bo'ldi. Chunki bular insonning yolg'izlanishi, oilaviy aloqalarning uzilishiga olib keldi. Bular insonni boshqalarga emas, balki faqat o'zi bilan o'zi band qilib qo'ydi[4].

5. Kibermakonning texnologik qurilmasi bo'lgan axborot-kommunikatsiya rivoji, birinchi navbatda inson shaxsi, ongi va dunyoqarashiga ta'sir etib, uning ijtimoiy o'lchovlarini o'zgarishiga olib keldi. Masalan, oilada olib borilishi zarur bo'lgan farzand tarbiyasida

deformatsiyalashuvni olib keldi. Bu “universal tarbiya” qaror topishiga turtki bo’ldi. Oxir oqibat – tarbiya borasida ijtimoiy amaliyotda “kristallashgan” an’analarda “transmilliy” buzilish yuzaga kelib, ming yillar davomida shakllanib kelgan “milliy tarbiyaviy qadriyatlar” o’rtasidagi funksional institutsionallashuvga “qaqshatqich zarba” berildi. Demak, tarbiya bir tomonlama olib borishga qaratilgan “ijtimoiy jarayon” emasligini, unga avvalo ota-ona mas’ulligini anglab yetmas ekanmiz, ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlashga qaratilgan ishlarimiz samarasiz bo’lib qolaveradi.

6. Ta’lim va tarbiya samaradorligiga to’siq bo’luvchi kibermakon omillarini aniqlashtirish va oldini olishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqishni tavsiya etamiz. Buning uchun – kibermakonda nafaqat ta’lim va tarbiya tizimiga ta’sir elementlarini boshqarish, balki, ularni yuqori murakkablikda ushlab turish, dinamik o’zgarishini nazorat qilish, hududiy jihatdan ta’sir elementlarini tashkillashtirish masalasiga e’tiborni kuchaytirish zarur. Mutaxassislarining fikricha, kibermakon hali yagona boshqaruv mexanizmiga ega emas. Demak, kibermakon parametrlari turli darajadagi ta’sirga bardosh berishiga shubhalar bor. Masalan, ta’limga nisbatan olganda boshqariladigan ob’jektning holati to’g’risida ma’lumotni to’plash, kerakli jihozga yuklash, holat to’g’risida qaror qabul qilish, holatga iqtisodiy, huquqiy yoki ijtimoiy baho berish murakkabligi saqlanib qolmoqda. Bu holatdan unumli foydalangan holda “ijtimoiy ong” shaklini o’zgartirishga qaratilgan usullarni tavsiya etamiz. Masalan, **“psixologik aloqaga kirishish”** usuli[5]. Bu metod amaliyotga to’rtta bosqichga asoslanib tadqiq etiladi:

1) yoshlar ongida o’rnashgan kibermakonning zararli oqibatlariga qarshi motivatsion immunitet hosil etish;

2) yoshlarning aqliy salohiyatini inobatga olgan holda yondashuvni amalga oshirish;

3) yoshlarni ruhiy emotsional kechinmalarini hisobga olish hisobidan targ’ibot ishlarini olib borish;

4) tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy muhitdagi o’rniga nisbatan olib borish yuqori samara berishi uchun quyidagi mexanizmlar amalda ishlashi kerak bo’ladi:

– yoshlar o’rtasidagi kiber muloqotni prognoz qilishning markazlashgan tizimini joriy etish zarur;

– yoshlarni kibermakondagi harakatini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishga qaratilgan mexanizmni ishlab chiqish kerak bo’ladi;

– talaba yoshlarni kiber kommunikativ layoqatini baholovchi milliy platforma yaratilishi va uni ishlash mexanizmini joriy etish zarur;

– talaba yoshlarni kibermakonning qaysi jihatlari ko’proq o’ziga jalb etmoqda?, qanday ta’sir vositalariga moyilligi yuqori? kabi savollarni tadqiq etuvchi doimiy sotsiologik markazni tashkillashtirish kerak;

– kibermakon omilini yoshlar ongiga (individual tarzda) ta’sir kuchini baholovchi ijtimoiy tadqiqotlar institutini tashkil etish zarur hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi **XULOSAGA** keldik:

Birinchidan, kibermakon tarkibiy tuzilmasi yuqori murakkablik darajasiga ko’ra: dinamik o’zgaruvchanligi, psixologik imkoniyatlaridagi mutanosibligi, vositachi sifatida namoyon bo’layotgan elementlarining serqirraligi, jamiyat boshqaruv jarayonida alohida maqomga ega ekanligi, katta miqdordagi respondentlar auditoriyasiga ixtisoslashganligi – kibermakon qiyofasini ko’rsatadi. Shu jihatdan baholaganda, uning (kibermakon) ta’lim va tarbiya kabi jamiyat drayverlariga ta’sir kuchi oshib boraveradi.

Ikkinchidan, strategik maqsadiga ko’ra kibermakon omili – doimiy rivojlanib borish tendensiyasida kechmoqda. Masalan, aloqa o’rnatish, munosabatlarni tashkillashtirish,

maqsadlarni integratsiyalashtirish, ijtimoiy muomalada jozibadorlikni ta'minlash, inson ongiga ta'sir etishga qaratilgan yangi protokollar, standartlar va uskunalarni ishlab chiqishni doimiy takomillashuvini boshqarish, kibermakonning ma'lum bir "segmenti"ni namoyon etmoqda.

Uchinchidan, kibermakonni boshqarish tuzilmasidagi ta'sir elementlarini tashkiliy jihatdan nazorat qilish, uni millatlarning milliy mentalitetiga moslash, urf-odat, an'anaviy qadriyatlarga monand shaklda ta'lim va tarbiya jarayoniga xizmat etishiga erishish, ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rnini pozitivlik jihatidan o'zgartirish – kibermakonning avtonom boshqarish tizimiga o'tishi bilan belgilanadi.

To'rtinchidan, jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy hodisalar ko'pincha, kichik (maishiy) ko'rinadigan "ta'sir elementlari" qurshovida qolishiga sabab bo'ladi. Kibermakonga bo'lgan munosabat shu shaklda kechmoqda. Ammo har qanday jarayonni shakllanish bosqichi bo'lgani kabi, kibermakon ham lokal-regional-global davriylikni bosib o'tmoqda. Uning ta'lim va tarbiyaga o'tkazayotgan ta'sirini anglash uchun biz – "kiber global" bosqichni ko'rishimiz shart emas. Chunki, bu davriylik kelganda "kiber tahdid"ni boshqarib bo'lmay qoladi.

Beshinchidan, hozirgi davrda kibermakon ta'sir vositalarini ta'lim va tarbiya jarayoniga yetkazayotgan zararini baholash mezonlari ishlab chiqilmaganligi sababli, uning ijtimoiy hayotimizga kirib kelish mexanizmini ko'rishimiz qiyin kechmoqda. Ammo, yaqin kelajakda jamiyatda sodir bo'ladigan barcha jarayonlarga uning aloqadorligini sezishni boshlaymiz. Chunki, u jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarda aks etmoqda. Qolaversa, ruhiy-emotsional holatimizni boshqaruvchi mezon sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021. –B.236.
2. Sh.M.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Jild-1. –T.: O'zbekiston NMIU, 2017. –B. 27.
3. S.Rahimova, E.Nishanbayeva, Yoshlarimizni ma'naviy tahdidlardan asrash masalalari //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). №. 12 (2). 2022. –P. 136-142.
4. Muxammad Amin Yahyo. Inernetdagi tahdidlardan himoya. –T.: Movarounnaxr, 2016. –B. 185.
5. Yazdonov, U. B. T. (2019). ОРГАНИЗАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ ПОД ВЛИЯНИЕМ ФОРМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ. *Theoretical & Applied Science*, (9), 88-92.
6. U.Yazdanov, (2017). Jamoatchilik fikrini transformatsiya qilish imkoniyatlari. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari.
7. <https://lex.uz/docs/6396146>.
8. <https://yuz.uz/news/maktabgacha-talimdagi-qamrov-darajasi-hozirgi-62-foizdan-kamida-80-foizga-etkaziladi>
9. <https://strategy.uz/index.php?news=1387>
10. https://uza.uz/uz/posts/oliy-islohotlari-yotgan-imkoniyatlar_392536